

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA ISTAK/XOHISH KATEGORIYASINING
MODALLIK VA GRAMMATIK IFODASI**

Abduraxmonova Maqsuda Ikram qizi

Ma'lumki, turli tillarda modallik kategoriyasi ma'nolari faqatgina leksik vositalar orqali emas, balki morfologik shakllar yordamida ham ifodalanadi. Bu jihatdan, fe'ning mayl kategoriyasi obyektiv modallikni namoyon etuvchi asosiy grammatik mexanizmlardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mayl shakllari orqali fe'l harakat yoki holatning voqelikka munosabatini ifoda qiladi, shu sababli mazkur kategoriya modallikning grammatik reprezentatsiyasi sifatida tadqiq etiladi.

Til tizimida modallikning ifodalanishi doimo nutqiy aktdagi kommunikativ maqsad bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. So'zlovchi muayyan fe'l shaklini tanlar ekan, u shu orqali voqeaga nisbatan o'z munosabati, xohishi, ehtimoli yoki shubhasini bildirishni ko'zlaydi. Demak, modallikning har qanday ko'rinishi - u obyektiv yoki subyektiv bo'lishidan qat'i nazar - nutq jarayonidagi illokutiv niyat bilan uzviy aloqada shakllanadi.

Ingliz va o'zbek tillarida istak va xohish ma'nolarining modal ifodasi turlicha grammatik hamda pragmatik vositalar orqali amalga oshiriladi. Ingliz tilida mazkur semantika asosan modal fe'llar (will, would, may, might, should, could) hamda istakni bildiruvchi leksik-fe'l birliklar (want, wish, hope, desire) orqali ifodalanadi. O'zbek tilida esa istak/xohish ma'nolari ko'proq shart mayli (-sa), ehtimol-ma'no ifodalovchi shakllar (-ar, -r), shuningdek, istak ohangiga ega bo'lgan sintaktik konstruksiyalar (bo'lsa edi, xohlardim, nasib etsa) yordamida ifoda topadi.

Shunday qilib, modallik kategoriyasining tilda ifodalanishi shartli ravishda ikki sathda amalga oshadi: grammatik sathda (mayl, zamon, yordamchi fe'llar) va leksik sathda (istak va xohishni bildiruvchi so'zlar, iboralar hamda konstruksiyalar). Har ikki tilda ham mazkur vositalarning qo'llanilishi so'zlovchining kommunikativ niyati, nutq vaziyati va ijtimoiy kontekst bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, istak/xohish kategoriyasi modallik tizimining semantik va pragmatik markaziy bo'g'inini tashkil etadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy tilshunoslikda modallik tushunchasi an'anaviy struktur yondashuv doirasidan chiqib, kognitiv, funksional va pragmatik paradigmalarda kesishmasida shakllanmoqda. Xususan, F. R. Palmer tomonidan taklif etilgan modallikning uch tarkibiy turga - epistemik, deontik va dinamik modallikka ajratilishi hozirgi lingvistik tadqiqotlar uchun nazariy asos vazifasini bajarmoqda. Palmer konsepsiyasiga ko'ra, wish/desire hamda istak/xohish ifodalari dinamik modallik doirasiga mansub bo'lib, ular subyektning ichki motivatsiyasi, ehtiyoji va harakatga tayyorlik darajasi bilan bevosita bog'liq holda namoyon bo'ladi. Umuman

olganda, istak/xohish kategoriyasi ingliz va o‘zbek tillarida modallik tizimining asosiy semantik yadrosini tashkil etadi. U nafaqat grammatik yoki leksik vosita, balki madaniy kod va milliy tafakkur ko‘rsatkichi sifatida ham qadrlanadi. Ingliz tili istakni individual motivatsiya bilan bog‘lasa, o‘zbek tili uni ijtimoiy va axloqiy birlik doirasida talqin etadi. Shunday qilib, modallik tizimi istak/xohishning kognitiv-pragmatik modelini yaratadi, bu esa muloqotning mazmuniy chuqurligini va madaniy o‘ziga xosligini ta‘minlaydi.

Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, tilshunoslarning istak maylining qo‘llanishi to‘g‘risidagi fikrlari ham xilma-xildir. Xususan, Deychbeyn istak mayli bilan bog‘liq bo‘lgan 16 ta maylni tashkil qiluvchi paradigmani taklif qiladi, ayni vaqtda L.S.Barxudarov istak maylining mavjudligini inkor qiladi. A.I. Smirniskiy esa mayllarni quyidagi turlarga bo‘ladi:

a) birinchi istak mayli reallikka zid bo‘lmagan gap bilan (*if he be; I suggest that he go*);

b) ikkinchi istak mayli esa, aksincha, voqealikka zid bo‘lgan va taxmin qilingan gap (*if it were, if he had known*);

d) taxmin mayl-*should* ning infinitive bilan birikib, har qanday ega bilan birga qo‘llanishi (*should-should you meet him*);

e) shart mayli- *should* va *would* fe‘llari analitik shakllar hosil qilib, shart ergash gapning bosh gapida qo‘llanadi (*What would you answer if you were asked...*). Bunday semantik asosda qilingan tasnif, A.I. Smirniskiyning fe‘l shakllariga asoslangan.

Mayl kategoriyasi harakat bilan subyekt orasidagi aloqaning voqelikka munosabatini ko‘rsatadi. Bu aloqa va munosabatning turlicha bo‘lishidan maylning ham bir necha turi bo‘ladi va har bir turga xos ma‘nolar maxsus shakllar orqali ifodalanadi.

Mayl shakllari fe‘llar orqali beriladigan modal ma‘nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bu modal ma‘nolar reallik, faraz, ikkilanish, istak-hoxish kabi ma‘nolarni o‘z ichiga oladi.

Ta‘kidlash kerakki, biz hozirgi o‘zbek adabiy tilida modal so‘zlarning ma‘no turlariga qarab, ular quyidagi guruhlariga bo‘linadi: 1) fikrning aniqligini ifodalovchi modal so‘zlar: *albatta, shubhasiz, so‘zsiz, shaksiz, haqiqatan, darhaqiqat, tabiiy*, 2) fikrning noaniqligini, gumonligini ifodalovchi modal so‘zlar: *ehtimol, chamasi, shekilli, aftidan, chog‘i, haytovur*, 3) maqsad, talab, shart ma‘nosini anglatuvchi modal so‘zlar: *kerak, lozim, zarur, darkor*, 4) mavjudlik yoki tasdiqni bildiruvchi so‘zlar: *bor, mayli, ko‘p, to‘g‘ri, tuzuk, yaxshi*, 5) ma‘qullashni-tasdiqlashni ifodalovchi so‘zlar: *durust, bo‘libdi, bas*, 6) yakunlash va ta‘kidni bildiruvchi modal so‘zlar: *demak, xullas, modomiki, ko‘rinadiki* va b.

Ingliz va o‘zbek tillarida istak/xohish kategoriyasining modallik doirasida ifodalanishi til tizimining grammatik, leksik hamda pragmatik qatlamlari uzviy

uyg'unlikda faoliyat yuritishini ko'rsatadi. Tadqiqot jarayonida aniqlandiki, modallik ma'nolari har ikki tilda nafaqat istakni bildiruvchi leksik birliklar orqali, balki fe'lning mayl shakllari, zamon ko'rsatkichlari va sintaktik konstruksiyalar yordamida ham ifodalanadi. Bu holat modallik kategoriyasining murakkab va ko'p qatlamli tabiatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Ingliz tilida istak va xohish semantikasi asosan modal fe'llar hamda wish, want, hope, desire kabi leksik-fe'l birliklar orqali ifodalansa, o'zbek tilida bu ma'nolar ko'proq shart mayli, ehtimol-ma'no ifodalovchi shakllar va istak ohangidagi sintaktik tuzilmalar vositasida namoyon bo'ladi. Ushbu farqlar har ikki tilning grammatik tuzilishi va nutqiy an'analari bilan bevosita bog'liqdir.

Shuningdek, modallik vositalarining tanlanishi so'zlovchining kommunikativ niyati, nutq vaziyati va ijtimoiy-madaniy kontekstga bog'liq holda o'zgarishi aniqlandi. Shu jihatdan, istak/xohish kategoriyasi nafaqat grammatik hodisa, balki semantik-pragmatik mazmunga ega bo'lgan lingvomadaniy birlik sifatida ham talqin etilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, *wish/desire* hamda *istak/xohish* ifodalari F. R. Palmer tasnifiga muvofiq dinamik modallik doirasida joylashib, subyektning ichki motivatsiyasi va harakatga yo'naltirilgan intilishini aks ettiradi. Ushbu birliklarning qiyosiy tahlili tillararo farq va umumiyliklarni aniqlashga, shuningdek, modallik kategoriyasini kognitiv va pragmatik jihatdan yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бархударов Л. С. К вопросу о поверхностной и глубинной структуре предложений // Вопр. языкознания. 1973.
2. Smirnitsky A.I. Lexicology of the English language. – M., 1996.
3. Palmer, F. Mood and modality. Cambridge: Cambridge University Press. 2001.
4. Qilichev E. O'zbek tili amaliy stilistikasi. – T.1992.
5. Рахматуллаев.Ш.У. Ўзбек тилининг изохли фразеологик луғати. Toshkent: «O'qituvchi» nashriyoti, 1978.